

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti “Xorijiy til va adabiyoti” yuqori kurslar kafedrası o‘qituvchilarining navbatdan tashqari yig‘ilish

B A Y O N N O M A S I № ____

07.04.2025

Denov tumani

Qatnashdilar: “Xorijiy til va adabiyoti” yuqori kurslar kafedrası mudiri

D.Tog‘aymurodov, fan o‘qituvchilari: I.Choriyeva , R.Ro‘ziyeva, D.Bobojonov, va boshqalar.

K U N T A R T I B I:

Ingliz tili fani o‘qituvchisi G. Xolmurotovaning “ Sport, body ,health, present perfect simple for and since” mavzusidagi ochiq dars muhokamasi.

Eshitildi:

Yig‘ilishni “Xorijiy til va adabiyoti” yuqori kurslar kafedrası mudiri D.Tog‘aymurodov kirish so‘zi bilan ochdi va bugungi yig‘ilishda ingliz tili fani o‘qituvchisi G.Xolmurotovaning 2025-yil 7-apreldagi Aniq va tabiiy fanlar yo‘nalishi 3m-2022-guruhida o‘tkazilgan “Sport, body ,health, present perfect simple for and since ” mavzusidagi ochiq dars mashg‘uloti muhokama qilinishini ta’kidlab o‘tdi. U o‘z so‘zida ochiq dars mashg‘uloti mavzusi to‘g‘ri tanlanganligini, dars reja asosida o‘tilganligini aytib o‘tdi.

Shuningdek, ingliz tili fani o‘qituvchisi G. Xolmurotova ochiq darsda qo‘yilgan ayrim kamchiliklarni ta’kidlab o‘tdi, amaliy mashg‘uloti davomida o‘z munosabatini bildirib, quyidagilarni bayon qildi: Dars jarayoni to‘g‘ri tashkil qilinganligi, dars davomida, ya’ni “Individual, group work, pair work” dan darsning asosiy qismida foylanish muhim ahamiyatga ega ekanligini ikki guruh a’nanaviy emas balkim interaktiv metodlardan foydalangan holda darsni tashkil etish mumkin ekanligi aytiladi. Mavzuga doir taqdimotdan, video materiallardan, mustahkamlovchi savollardan, tarqatma materiallardan, ko‘rgazmali qurollardan, vaqtdan unumli foydalanganligini ta’kidlab o‘tdi.

Shundan keyin, ingliz tili fani o‘qituvchisi I.Choriyeva so‘zga chiqib quyidagilarni ta’kidlab o‘tdi: “Dars interaktiv o‘yinlar asosida tashkil qilindi, o‘tilgan

mavzular yuzasidan savol-javoblar tashkil qilindi, vazifa tarqatma materiallar asosida soʻraldi, savol-javoblar asosida talabalar baholandi. Yangi mavzuni reja asosida talabalar guruhlariga boʻlingan holda bayon qilib berdi. Oʻqituvchi yaʼngi mavzuni toʻldirdi. Dars jarayonida turli xil oʻyinlardan foydalanib, talabalarni darsga qiziqitiradi. Demak, oʻqituvchi darsga har tomonlama puxta tayyorgarlik koʻrgan. Shuning uchun bu darsni ijobiy deb baholayman”. Dars yuqorida koʻrsatib oʻtilgan taʼlim sifati bosqichiga mos ravishda tashkil etilgan. Maʼlumotlar tizimli, ilmiy va tushunarli bayon etildi. Darsda yuzaga kelgan ayrim kamchiliklar taʼkidlandi va bartaraf etishi tushuntirildi.

Dars davomida turli tarqatma materiallardan foydalanildi, ular ilova qilib koʻrsatiladi.*

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib kafedra yigʻilishi quyidagicha

QAROR QILADI.

1. Ingliz tili fani oʻqituvchisi G.Xolmurotovaning

“Sport, body ,health, present perfect simple for and since” mavzusidagi ochiq darsi DTS talablariga toʻliq javob beradi deb topilsin.

Yigʻilish raisi:

T.Togʻaymurodov

Kotiba

I.Choriyeva

